

Oltin kuz

Tursunboy Adashboyev



*Tursunboy
Adashboyev
1939–2017*

Tursunboy Adashboyev 1939-yil 1-yanvarda Qirg'izistonning Jalolobod viloyatida tug'ilgan. O'rta maktabni tugatgach, Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti)ning jurnalistika fakultetida o'qigan. Moskvadagi Adabiyot institutida ham tahsil olgan.

U "Kamolning olmasi", "Biz sayohatchilar", "Olatog' – lolatog'", "Jo'nataman quyoshni", "Uch bo'taloq va sirli qovoq", "Topishmoqli alifbe" singari she'riy to'plamlar muallifi.



O'qing.

Yana xazonrezgilik*,
Bog'lar rangi siniqdi*.
Dilda hokim ezgulik,
Anhorda suv tiniqdi.

Yashil libos daraxtlar
Taqdi yana zar baldoq*.
Qushlarga gap tayinlab,
Chag'chag'laydi zarg'aldoq*.

Ufq orti lolagun*,
Daraxtlardan rang olar.
Xayrlashib kuz bugun,
Sochar oltin tangalar.



xazonrezgilik – barg, xazon to'kilish davri; kech kuz

siniqmoq – rangpar bo'lib qolmoq, sarg'aymoq

baldoq – zirak

zarg'aldoq – qanotlari qoramtir, o'zi sariq sayroqi qush

lolagun – lolarang



1. Shoir bu faslni qanday ruhda tasvirlaydi?
2. Yashil libos daraxtlar
Taqdi yana zar *baldoq* jumla-sini qanday izohlaysiz?
3. Bu she'r sizda qanday kayfiyat uyg'otdi?



Epitet – narsalarni ko'chma ma'noda jonli tasvirlash uchun ularga qo'shib ishlatiladigan sifatlovchi so'z.

Masalan: oltin qo'llar, kumush qish.



She'rni ovoz chiqarib o'qing. Undagi epitetlarni toping. O'zaro fikr almashing.



She'rni yod oling.

